

Iqtisodiyot va servis instituti i.f.f.d. (Phd)

Norqobilov N

Iqtisodiyot va servis instituti magistranti. **Rasulov F**

Annotasiya: Ushbu ilmiy maqolada aholini ish bilan bandligini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar, davlatning ijtimoiy jarayonlarini boshqarishdagi va fuqarolarni ijtimoiy huquqlarini ta'minlashi, hududlarda ish bilan ta'minlashni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация (рус): В данной научной статье разработаны роль социальной защиты в повышении занятости населения, реализуемые в нашей стране реформы, государственное управление социальными процессами и обеспечение социальных прав граждан, предложения по повышению занятости в регионах. .

SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE OF PROVIDING THE EMPLOYMENT OF THE POPULATION

Abstract In this scientific article, the role of social protection in increasing the employment of the population, the reforms implemented in our country, the state's management of social processes and the provision of citizens' social rights, proposals for increasing employment in the regions have been developed.

Key words: Economic growth, employment, efficiency, entrepreneurship, market infrastructure, prosperity, service.

Ключевые слова Экономический рост, занятость, эффективность, предпринимательство, рыночная инфраструктура, процветание, сервис.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, bandlik, samaradorlik, tadbirkorlik, bozor infratuzilmasi, farovonlik, servis.

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizasiyalash jarayoni jamiyat faoliyati rivojlanishining mutlaqo yangi asoslarini ishlab chiqishni talab etadi.

Hayot darajasi va sifati haqida ma'lumot beradigan eng muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biri –bandlik darajasidair. Aholi bandligi muammosi kishilarni mehnat faoliyatiga jalb qilish bilan bog'liq muammo bo'lib, ularning mehnatga bo'lgan ehtiyojini ishchi o'rinalar bilan qondirishni nazarda tutadi.

Bandlikni ta'minlash-belgilangan maqsadlarga erishish yo'lida davlat tomonidan mehnat bozoriga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari yig'indisidir.

Bandlikni ta'minlash bir nechta darajada amalga oshiriladi.

- umumdavlat, bunda jamiyatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari hal qilinadi, darvoqe, qabul qilinayotgan qarorlarning katta qismi u yoki bu darajada bandlik darajasida o'z ifodasini topadi;

- hududiy darajada, mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari doirasida hamda tegishli byudjet imkoniyatlari doirasida amalga oshiriladi, bu darajada mehnat bozorini boshqarish, xizmatchilarni ommaviy ishdan bo'shatishni to'xtatish, ishsizlarga ijtimoiy yordamni kengaytirish va boshqa masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinadi;

- mahalliy darajada, bu darajada mehnat bozori sub'ektlarining o'zaro munosabatlari, aniq bir insonning mehnat beruvchi, bandlik markazi va mahalliy ijro hokimiyati organlari bilan munosabatlari amalga oshiriladi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin, mehnatga layoqatli aholining yalpi bandligini ta'minlash mumkin emas. Chunki kimdir ishchi kuchiga qo'shiladi, kimdir uning tarkibidan chiqadi, yana kimningdir ishdan bo'shatadilar yoki uning o'zi ishdan bo'shaydi, ayrimlar ish axtarib yurgan bo'ladi, ya'ni ishchi kuchining harakat yuz beradi, bunda ishchi kuchining muayyan qismi qandaydir vaqt oralig'ida ishsiz qoladi. Masalan, AQSh da butun ishchi kuchining 1/5 qismi har yili o'z ishini o'zgartiradi.

Shunday qilib, to'liq bandlik ishsizlikning yo'qligini anglatmaydi. Ishsizlikni hisob-kitob qilish uchun turli ko'rsatkichlardan foydalilanadi, lekin umum qabul qilingani shu jumladan, Xalqaro Mehnat tashkiloti tomonidan tan olingani-ishsizlik normasi (me'yori)dir.

Uni aniqlash uchun ishsizlar umumiyligi miqdorining ishchi kuchi soniga nisbati prosent miqdorida olinadi. G'arb iqtisodchilarining fikiricha, 5-6 hajmdagi ishsizlik tabiiy, normasi va muqarrar darajada hisoblanadi. Agar ishchi kuchining bandligi

94-95% ni tashkil etsa, bu mehnatga layoqatli aholining to‘liq bandligiga erishganlik sifatida baholanadi.

- investision faollikning pasayishi, ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi, inflyasiya bilan bog‘liq nomaqbul tendensiyalarning oldini olish;
- mehnatda band fuqarolarni ommaviy ishdan bo‘shatilishini to‘xtatish turish;
- iqtisodiyotning nodavlat muqobil sektorlarida bandlikni rivojlantirish uchun shart- sharoit yaratish;
- ishdan bo‘shatilish xavfi ostidagi fuqarolarning maqsadli qo‘llab-quvvatlanishi va himoyasini ta'minlash;
- mehnat bozorida aholining kam himoyalangan qatlamlarining bandligiga ko‘maklashish uchun qo‘sishimcha choralar ko‘rish;
- davomiy ishsizlik oqibatlarini yumshatish.

Aholining bandligini oshirida quyidagi korxonalarga ustuvorlik berish lozim: mehnat bozorida inqirozli vaziyat yuzaga kelgan hududlarda joylashgan korxonalar, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ishchi o‘rinlari yaratayotgan korxonalarga.

Aholini ish bilan bandligi sohasida yuzaga kelgan salbiy hodisalarini bartaraf etish uchun markaziy va mahalliy darajalarda quyidagi vazifalarni hal etishni talab etiladi:

- investisiya va soliq siyosatini amalga oshirishda mavjud ishchi o‘rinlaridan to‘liq foydalanishni, kichik korxonalarini rivojlantirishni, kapital mablag‘larni istiqbolli rivojlanayotgan sohalar borabarida bandliknining mehnat sig‘imi yuqori sohalariga yo‘naltirishni rag‘batlantirish;
- mehnat bozorida inqirozli vaziyat kuzatilaytgan hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish tizimini joriy etish;
- iqtisodiyotning nodavlat sektorida bandlik miqyoslarini optimallashtirish;
- hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari va ishsizlarning sifat tarkibini hisobga olgan holda ijtimoiy ishlarning shakllarini kengaytirish, ularni tashkil etish, o‘tkazish va moliyalashtirish shart-sharoitlarini kengaytirish;
- aholining alohida ijtimoiy guruhlari - yoshlar, yosh bolali onalar, nogironlar uchun bandlikni kengaytirishga yo‘naltirgan yuksak darajada rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida maxsus dasturlar ishlab chiqishdan iboratdir.

REFERENCES:

Norqobilov, N. (2020). The role of foreign investment in the development of the economy of Kashkadarya region. *Business Expert*, 1, 145.

Norqobilov, N., & Abdullayev, J. (2023). Specific features of solving the housing problem in our country in the context of economic reforms. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(2), 21-23.

Норқобилов, Н. Н. (2017). Таълим тизимини бюджетдан ташқари молиялаштириш ва кадрлар тайёрлашда маркетингнинг ўрни. *Современное образование (Узбекистан)*, (8), 36-40.

Norqobilov, N., & Rasulov, F. (2023). THE ROLE OF SOCIAL PROTECTION IN IMPROVING THE LIVING WELL-BEING OF THE POPULATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(2), 24-25.

Norkobilov, N. N. (2021). Structure and features of expanding investment in the southern region of uzbekistan. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 704-709.